UDK: 614.2:378.18(1-87)

XORIJLIK TALABALAR SALOMATLIGINI SAQLASH VA TIBBIY XIZMATLARDAN FOYDALANISH HOLATINI KOMPLEKS TAHLIL QILISH

Jabbarova Umriniso Raxmat qizi – magistrant
Samarqand davlat tibbiyot universiteti (Samarqand, O‘zbekiston)

Annotatsiya. *Mazkur tadqiqot xorijlik talabalar salomatligini saqlash va ularning tibbiy xizmatlardan foydalanish holatini kompleks baholashga qaratilgan. Tadqiqot Samarqand davlat tibbiyot universiteti misolida 2025-2026-yillar davomida olib borilib, unda rasmiy statistik ma’lumotlar, tibbiy hujjatlar tahlili hamda 62 nafar xorijlik talaba ishtirok etgan so‘rovnoma natijalari asos sifatida qo‘llanildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, xorijlik talabalar orasida tibbiy xizmatlardan foydalanish darajasi yetarli emas bo‘lib, respondentlar tomonidan sog‘liqni saqlash tizimiga berilgan o‘rtacha baho 3,29±0,12 ballni tashkil etdi. Aniqlanishicha, tibbiy xizmatlardan samarali foydalanishga to‘sqinlik qiluvchi asosiy omillar sifatida til va kommunikativ to‘siqlar, sog‘liqni saqlash tizimi haqida yetarli axborotning mavjud emasligi, madaniy tafovutlar hamda psixologik stress holatlari namoyon bo‘lmoqda. Tibbiy murojaatlar tuzilmasida oshqozon-ichak kasalliklari, nafas yo‘llari infeksiyalari, allergik reaksiyalar va stress bilan bog‘liq holatlar ustunlik qilishi kuzatildi. Olingan natijalar xorijlik talabalar uchun moslashtirilgan, ko‘p tilli va madaniy jihatdan sezgir tibbiy xizmatlar modelini joriy etish zarurligini ko‘rsatadi. Shuningdek, profilaktik tadbirlarni kuchaytirish, axborot-kommunikatsion qo‘llab-quvvatlashni rivojlantirish va psixologik xizmatlarni integratsiya qilish xorijlik talabalar salomatligini yaxshilashning muhim omillari sifatida asoslab berildi.*

Kalit so‘zlar: *xorijlik talabalar, jamoat salomatligi, tibbiy xizmatlardan foydalanish, sog‘liqni saqlash tizimi, sog‘liq xizmatlari sifati, madaniy va til to‘siqlari, psixologik moslashuv, profilaktik tibbiyot.*

КОМПЛЕКСНЫЙ АНАЛИЗ СОСТОЯНИЯ ЗДОРОВЬЯ И ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕДИЦИНСКИХ УСЛУГ ИНОСТРАННЫМИ СТУДЕНТАМИ

Джаббарова Умринисо Рахматовна – магистрант
Самаркандский государственный медицинский университет (Самарканд, Узбекистан)

Аннотация. *Настоящее исследование направлено на комплексную оценку состояния здоровья иностранных студентов и уровня их использования медицинских услуг. Исследование проведено на базе Самаркандского государственного медицинского университета в период 2025–2026 годов с использованием официальных статистических данных, анализа медицинской документации, а также результатов анкетирования 62 иностранных студентов. Результаты показали, что уровень использования медицинских услуг среди иностранных студентов является недостаточным, при этом средняя оценка системы здравоохранения, данная респондентами, составила 3,29 ± 0,12 балла. Установлено, что основными препятствиями эффективного использования медицинских услуг являются языковые и коммуникативные барьеры, недостаточность информации о системе здравоохранения, культурные различия, а также психологический стресс. В структуре медицинских обращений преобладают заболевания желудочно-кишечного тракта, инфекции дыхательных путей, аллергические реакции и состояния, связанные со стрессом. Полученные результаты свидетельствуют о необходимости внедрения адаптированной, многоязычной и культурно чувствительной модели медицинского обслуживания для иностранных студентов. Кроме того, усиление профилактических мероприятий, развитие информационно-коммуникационной поддержки и интеграция психологических услуг определены как важные факторы улучшения здоровья иностранных студентов.*

Ключевые слова: *иностранные студенты, общественное здоровье, использование медицинских услуг, система здравоохранения, качество медицинских услуг, культурные и языковые барьеры, психологическая адаптация, профилактическая медицина.*

COMPREHENSIVE ANALYSIS OF THE HEALTH STATUS AND UTILIZATION OF MEDICAL SERVICES AMONG INTERNATIONAL STUDENTS

Jabbarova Umriniso Rakhmatovna – master’s student
Samarkand State Medical University (Samarkand, Uzbekistan)

Abstract. *This study is aimed at the comprehensive assessment of the health status of international students and their utilization of medical services. The research was conducted based on the case of Samarkand State Medical University during 2025-2026, using official statistical data, analysis of medical records, and results of a survey involving 62 international students. The findings indicate that the level of utilization of health-care services among international students is insufficient, with the average rating of the health-care system by respondents being 3.29 ± 0.12 points. The structure of medical consultations was dominated by gastrointestinal diseases, respiratory tract infections, allergic reactions, and stress-related conditions. The obtained results highlight the necessity of implementing a culturally sensitive, multilingual health-care service model tailored for international students. Furthermore, strengthening preventive measures, developing information and communication support, and integrating psychological services were identified as essential factors in improving the health of international students.*

Keywords: *international students, public health, utilization of medical services, health-care system, quality of health-care services, cultural and language barriers, psychological adaptation, preventive medicine.*

Kirish: So‘nggi yillarda globallashuv jarayonlari va oliy ta’lim tizimining internatsionallashuvi natijasida xalqaro akademik mobillik sezilarli darajada oshdi. Natijada xorijlik talabalar sonining ortishi nafaqat ta’lim sifatiga, balki ularning salomatligini saqlash va tibbiy xizmatlardan foydalanish tizimiga ham yangi talablarni qo‘ymoqda. Xalqaro tashkilotlar va ilmiy tadqiqotlar ma’lumotlariga ko‘ra, xorijlik talabalar yangi ijtimoiy, madaniy va iqlim sharoitlariga moslashish jarayonida turli jismoniy va ruhiy muammolarga duch keladi [1,2]. O‘zbekiston Respublikasida ham oliy ta’lim tizimini rivojlantirish va xalqaro ta’lim xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirish maqsadida xorijlik talabalarni jalb qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, tibbiyot yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalari, jumladan Samarqand davlat tibbiyot universiteti xorijiy talabalar uchun yetakchi ta’lim markazlaridan biriga aylanmoqda. Ushbu universitetda tahsil olayotgan xorijlik talabalar sonining ortib borishi ularning salomatligini saqlash, tibbiy xizmatlardan foydalanish samaradorligini oshirish va ushbu jarayonni boshqarish masalalarini dolzarb ilmiy muammoga aylantirmoqda [3].

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, xorijlik talabalar tibbiy xizmatlardan foydalanishda bir qator tizimli to‘siqlarga duch keladi. Ular orasida eng asosiylari sifatida til to‘siqlari, sog‘liqni saqlash tizimi haqida yetarli axborotga ega emaslik, madaniy tafovutlar hamda tibbiy xizmatlarning tashkiliy jihatlari bilan bog‘liq murakkabliklar qayd etilgan [4,5]. Tadqiqotchilar, shuningdek, xorijlik talabalar orasida psixologik stress, ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar va yolg‘izlik hissi keng tarqalganligini ta’kidlaydi, bu esa ularning umumiy sog‘lig‘i va tibbiy xizmatlardan foydalanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi [6,7]. Bundan tashqari, sog‘liqni saqlash xizmatlari sifati va tibbiy xodimlar bilan muloqot darajasi xorijlik talabalar tomonidan xizmatlardan foydalanish qaroriga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Xizmat sifati past baholangan hollarda talabalar tibbiy muassasalarga murojaat qilishdan qochishi yoki o‘z-o‘zini davolashga moyil bo‘lishi aniqlangan [5]. Shu sababli xorijlik talabalar uchun moslashtirilgan, ko‘p tilli va madaniy jihatdan sezgir tibbiy xizmatlar tizimini joriy etish zamonaviy sog‘liqni saqlash boshqaruvining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi [3,4]. Yuqoridagilardan kelib chiqib, xorijlik talabalar salomatligini saqlash va ularning tibbiy xizmatlardan foydalanish holatini kompleks tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqot Samarqand davlat tibbiyot universiteti misolida xorijlik talabalar salomatligi va ularning tibbiy xizmatlardan foydalanish xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan.

Tadqiqot materiallari va usullari: Mazkur tadqiqot Samarqand davlat tibbiyot universitetida tahsil olayotgan xorijlik talabalar salomatligini saqlash va ularning tibbiy xizmatlardan foydalanish holatini kompleks o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, 2025-2026-yillar davomida olib borildi. Tadqiqot dizayni sifatida kesimiy (cross-sectional) tahlil va aralash metodologiya (quantitative va qualitative yondashuvlar uyg‘unligi) qo‘llanildi.

Tadqiqot obyekti va predmeti: Tadqiqot obyekti sifatida Samarqand davlat tibbiyot universitetida tahsil olayotgan xorijlik talabalar tanlandi. Tadqiqot predmeti esa ularning salomatlik holati, tibbiy xizmatlardan foydalanish darajasi hamda ushbu jarayonga ta’sir etuvchi omillarni o‘z ichiga oladi.

Tadqiqot ishtirokchilari: So‘rovnoma tadqiqotida jami 62 nafar xorijlik talaba ishtirok etdi. Respondentlar ixtiyoriy va anonim tarzda tanlandi. Tanlovda Hindiston, Pokiston, Bangladesh, Koreya Respublikasi va Turkiya davlatlaridan kelgan talabalar qamrab olindi. Tanlanma reprezentativ bo‘lishi uchun turli kurs va semestrlardagi talabalar jalb qilindi.

Tadqiqotda quyidagi ma’lumot manbalaridan foydalanildi:

- 2025-2026-yillar davomida universitet bo‘yicha xorijlik talabalar soniga oid rasmiy statistik ma’lumotlar;
- universitet klinik bazalarida mavjud umumlashtirilgan tibbiy hujjatlar;
- xorijlik talabalar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnoma (anketa) natijalari;
- yarim strukturalangan intervyular natijalari;
- mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar.

Tadqiqot usullari: **Statistik tahlil usuli.** Olingan ma'lumotlar Microsoft Excel dasturi yordamida qayta ishlanib, tavsifiy statistika (o'rtacha qiymat, foiz ko'rsatkichlar) hisoblandi. So'rovnoma natijalariga ko'ra sog'liqni saqlash tizimiga berilgan baholarning o'rtacha qiymati (Mean) aniqlanib, natijalar grafik va jadval ko'rinishida umumlashtirildi.

So'rovnoma (anketa) usuli. Respondentlarning tibbiy xizmatlardan foydalanish darajasi, murojaat qilish chastotasi, xizmat sifati bo'yicha subyektiv bahosi hamda duch kelayotgan muammolarni aniqlash maqsadida tuzilgan. So'rovnoma 5 ballik Likert shkalasi asosida ishlab chiqildi va ikki tilda (o'zbek va ingliz) taqdim etildi.

Intervyu usuli. Ayrim respondentlar bilan yarim strukturalangan intervyular o'tkazilib, tibbiy xizmatlardan foydalanishdagi muammolar va subyektiv fikrlar chuqur o'rganildi.

Tibbiy hujjatlar tahlili. Xorijlik talabalar orasida uchraydigan asosiy kasalliklar va murojaatlar tuzilmasini aniqlash maqsadida ambulator va statsionar ma'lumotlar umumlashtirildi.


Qiyosiy tahlil usuli. Olingan natijalar xorijiy tadqiqotlar bilan solishtirilib, umumiy tendensiyalar va farqli jihatlar aniqlandi.

Tadqiqot davomida respondentlarning shaxsiy ma'lumotlari maxfiyligi ta'minlandi. So'rovnoma anonim tarzda o'tkazildi va ishtirokchilardan og'zaki rozilik olindi. Tadqiqot bioetika va ilmiy hallollik tamoyillariga to'liq rioya etilgan holda amalga oshirildi.


Tadqiqotning asosiy cheklovlari sifatida tanlanma hajmining nisbatan kichikligi (n=62), barcha xorijlik talabalarni to'liq qamrab olish imkoniyatining cheklanganligi hamda ayrim respondentlarning subyektiv javoblari qayd etiladi.

Natijalar va ularning tahlili: O'tkazilgan tahlillar natijasida Samarqand davlat tibbiyot universitetida tahsil olayotgan xorijlik talabalar soni 4558 nafarni tashkil etishi aniqlandi. Talabalar asosan Hindiston, Pokiston, Bangladesh, Koreya Respublikasi va Turkiya davlatlaridan kelgan bo'lib, bu ularning sog'liq ko'rsatkichlari va tibbiy xizmatlardan foydalanish xususiyatlarida muayyan farqlar mavjudligini ko'rsatadi.

Talabalarning semestrlarga ko'ra taqsimlanishi notekis ekanligi qayd etildi. Eng yuqori kontsentratsiya boshlang'ich (1-3-semestrlar) va o'rta bosqich (10-12-semestrlar)da kuzatildi. Mazkur bosqichlarda o'quv yuklamasi va moslashuv jarayonining intensivligi yuqori bo'lib, sog'liq bilan bog'liq muammolar yuzaga kelish ehtimoli ortadi.




1-rasm.




2-rasm.

1. So'rovnoma natijalari tahlili

Tadqiqot doirasida o'tkazilgan so'rovnomada jami 62 nafar xorijlik talaba ishtirok etdi. So'rovnoma natijalari tahlili xorijlik talabalar tomonidan tibbiy xizmatlardan foydalanish darajasi va sog'liqni saqlash tizimiga bo'lgan munosabatini aniqlash imkonini berdi. Respondentlar tomonidan sog'liqni saqlash tizimiga berilgan umumiy baho o'rtacha 3,29±0,12 ballni tashkil etdi (5 ballik Likert shkalasi bo'yicha). Eng ko'p qayd etilgan baho 3 ball bo'lib, respondentlarning sezilarli qismi tizimni o'rtacha darajada baholaganini ko'rsatadi.



3-rasm.



4-rasm.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, respondentlarning taxminan:

- 48-52 % qismi tibbiy xizmatlarni “o‘rtacha” darajada baholagan;
- 25-30 % respondentlar xizmatlarni yuqori (4-5 ball) baholagan;
- 18-22 % respondentlar esa past (1-2 ball) baho bergan.


Mazkur ko‘rsatkichlar sog‘liqni saqlash tizimining umumiy qoniqarli darajada ekanligini, biroq ayrim muammolar mavjudligini ko‘rsatadi.

3. Tibbiy xizmatlardan foydalanish xususiyatlari


So‘rovnoma natijalari xorijlik talabalar orasida tibbiy xizmatlardan foydalanish faolligi yetarli darajada emasligini ko‘rsatdi. Respondentlarning aksariyati tibbiy muassasalarga faqat jiddiy klinik holatlarda murojaat qilishini ta’kidladi. Xususan:

- respondentlarning 60 % dan ortig‘i yengil simptomlar kuzatilganda shifokorga murojaat qilmasligini bildirgan;
- taxminan 55-65 % respondentlar o‘z-o‘zini davolashga moyillik mavjudligini qayd etgan;
- muntazam profilaktik ko‘riklardan foydalanish darajasi past ekanligi aniqlandi.

Ushbu holat xorijlik talabalar orasida sog‘liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish madaniyati yetarli darajada shakllanmaganligini ko‘rsatadi.



5-rasm.



6-rasm.

4. Tibbiy xizmatlardan foydalanishga to‘sqinlik qiluvchi omillar

So‘rovnoma va intervyu natijalari asosida asosiy to‘siq omillar aniqlashtirildi. Respondentlar tomonidan quyidagi omillar eng ko‘p qayd etildi:

- til va kommunikatsiya muammolari 50-60 % ;
- sog‘liqni saqlash tizimi haqida axborot yetishmasligi – 45-55 %;
- hujjatlashtirish jarayonlarining murakkabligi – 30-40 %;
- psixologik noqulaylik va ishonchsizlik – 25-35 %.

Mazkur natijalar xorijlik talabalar uchun moslashtirilgan, ko‘p tilli axborot tizimi zarurligini ko‘rsatadi.

5. Tibbiy murojaatlar tuzilmasi

Tibbiy hujjatlar tahlili xorijlik talabalar orasida eng ko‘p uchraydigan kasalliklar tuzilmasini aniqlash imkonini berdi. Aniqlanishicha, murojaatlar quyidagi

- kasalliklar bo‘yicha ustunlik qiladi:
- oshqozon-ichak tizimi kasalliklari
- nafas yo‘llari infeksiyalari
- allergik holatlar
- stress va psixosomatik buzilishlar

Mazkur kasalliklar asosan:

- moslashuv davrida
- iqlim va ovqatlanish o‘zgarishlarida
- o‘quv yuklamasi yuqori bo‘lgan davrlarda ko‘proq qayd etilgan.

6. Umumiy natijaviy baholash

Yuqoridagi natijalar xorijlik talabalar orasida:

- tibbiy xizmatlardan foydalanish darajasi yetarli emasligini
- tizimga nisbatan qoniqish darajasi o‘rtacha ekanligini
- kommunikatsion va axborot muammolari ustunligini

ko‘rsatdi. Olingan natijalar xorijlik talabalar salomatligini saqlash va tibbiy xizmatlardan foydalanish tizimini takomillashtirish zarurligini ilmiy asosda tasdiqlaydi.

Xulosa va amaliy tavsiyalar: Mazkur tadqiqot Samarqand davlat tibbiyot universitetida tahsil olayotgan xorijlik talabalar salomatligini saqlash va ularning tibbiy xizmatlardan foydalanish holatini kompleks o‘rganishga qaratildi. O‘tkazilgan statistik tahlil, so‘rovnoma va tibbiy hujjatlar tahlili natijalari xorijlik talabalar orasida sog‘liqni saqlash tizimiga bo‘lgan ehtiyoj yuqori ekanligini ko‘rsatdi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, xorijlik talabalar tomonidan tibbiy xizmatlardan foydalanish darajasi yetarli emasligi aniqlandi. Respondentlar sog‘liqni saqlash tizimini o‘rtacha darajada baholagan bo‘lib, umumiy baho 3,29±0,12 ballni tashkil etdi. Talabalarning aksariyati tibbiy muassasalarga faqat og‘ir holatlarda murojaat qilishi, yengil simptomlar kuzatilganda esa o‘z-o‘zini davolashga moyillik mavjudligi kuzatildi.

Aniqlanishicha, tibbiy xizmatlardan samarali foydalanishga asosiy to‘sqinlik qiluvchi omillar sifatida til va kommunikatsiya muammolari, sog‘liqni saqlash tizimi haqida yetarli axborotning mavjud emasligi, madaniy tafovutlar hamda psixologik omillar namoyon bo‘lmoqda. Tibbiy murojaatlar tuzilmasida esa oshqozon-ichak kasalliklari, nafas yo‘llari infeksiyalari, allergik holatlar va stress bilan bog‘liq buzilishlar ustunlik qilishi qayd etildi.

Olingan natijalar xorijlik talabalar salomatligini saqlashda profilaktik yondashuvlarning muhimligini hamda ularning ehtiyojlariga moslashtirilgan tibbiy xizmatlar tizimini joriy etish zarurligini asoslab beradi. Xususan, ko‘p tilli axborot ta’minoti, madaniy jihatdan sezgir tibbiy xizmatlar, muntazam profilaktik ko‘riklar va psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish xorijlik talabalar salomatligini yaxshilashning ustuvor yo‘nalishlari sifatida e’tirof etiladi. Shu bilan birga, mazkur tadqiqot natijalari oliy ta’lim muassasalarida sog‘liqni saqlashni boshqarish tizimini takomillashtirish, xorijlik talabalar uchun qulay va samarali tibbiy xizmatlar modelini ishlab chiqish hamda ularning sog‘lig‘ini mustahkamlashga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. OECD. International Migration Outlook 2022. Paris: OECD Publishing, 2022. https://doi.org/10.1787/30fe16d2-en

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida (PF-5847-son Farmon). Toshkent, 2019-yil 8-oktabr.

3. Konakbayeva M., Hatipoğlu S.S. Structural Challenges to Healthcare Access: A Comparative Analysis of International Students in Türkiye and Kazakhstan. MANAS Sosyal Araştırmalar Dergisi, 2025, 14(Eğitim Bilimleri Ek Sayısı), 218-234. https://doi.org/10.33206/mjss.1775924

4. Graetz V., Rechel B., Groot W., Norredam M., Pavlova M. Utilization of health care services by migrants in Europe: a systematic review. British Medical Bulletin, 2017, 121(1), 5-18. https://doi.org/10.1093/bmb/ldw057

5. Indrayathi P.A., Januraga P.P., Ulandari L.P.S., et al. International students’ perceived quality of university health centre services: an exploratory sequential mixed methods study. Primary Health Care Research & Development, 2024, 25:e39. https://doi.org/10.1017/S1463423624000288

6. Sawir E., Marginson S., Deumert A., Nyland C., Ramia G. Loneliness and International Students: An Australian Study. Journal of Studies in International Education, 2008, 12(2), 148–180. https://doi.org/10.1177/1028315307299699

7. Sakız H., Jencius M. Inclusive mental health support for international students: Unveiling delivery components in higher education. Cambridge Prisms: Global Mental Health, 2024, 11, e8. https://doi.org/10.1017/gmh.2024.1

8. Jabbarova Umriniso Raxmat qizi. Xorijlik talabalar kontingenti dinamikasi va ularning salomatligini saqlash muammolarini o‘rganish (Samarqand davlat tibbiyot universiteti misolida). The multidisciplinary journal of science and technology. Volume-6, ISSUE-1.